

G‘ijduvon tuman Axborot – kutubxona markazi

Axborot-bibliografiya xizmati

“Buyuk o‘zbek shoiri, mutafakkir, davlat arbobi

Alisher Navoiy”

Nizomiddin Mir Alisher Navoiy tavalludining 585 yilligiga

bag‘ishlangan bibliografik ro‘yxat

G‘ijduvon – 2026

KIRISH

Alisher Navoiy — jahon adabiyoti tarixida alohida o‘rin egallagan buyuk mutafakkir, shoir, olim va davlat arbobi. U o‘zbek mumtoz adabiyotining asoschisi bo‘lib, turkiy adabiyotning mustaqil va yuksak darajada rivojlanishiga zamin yaratgan. Navoiy ijodi Sharq uyg‘onish davrining yuksak namunasi bo‘lib, unda inson, jamiyat, adolat, axloq va ma’naviyat masalalari chuqur falsafiy talqin etilgan.

Bugungi kunda Alisher Navoiy merosi nafaqat o‘zbek xalqi, balki butun insoniyat madaniy boyligining ajralmas qismi hisoblanadi. Bibliografik ro‘yxatning asosiy maqsadi — Alisher Navoiy ijodini o‘rganishda tadqiqotchilar, talaba va o‘quvchilar, shuningdek kutubxona xodimlari hamda keng kitobxonlar ommasi uchun ishonchli va qulay axborot manbaini yaratishdan iborat. Ushbu ro‘yxat Navoiy merosini chuqurroq o‘rganish, ilmiy izlanishlar olib borish hamda ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni tashkil etishda qo‘llanma vazifasini o‘taydi.

Mazkur bibliografik material Alisher Navoiy ijodining dolzarbligini yoritish, uning adabiy va ma’naviy merosini targ‘ib etish hamda milliy madaniyatimiz rivojidadagi o‘rni va ahamiyatini keng ommaga yetkazishga xizmat qiladi.

ALISHER NAVOIY HAYOTI VA IJODI.

Alisher Navoiy 1441-yil 9-fevral kuni Xuroson davlatining poytaxti — hozirgi Afg‘oniston hududidagi Hirot shahrining Bog‘i Davlatxona mavzesida tug‘ildi. Otasi G‘iyosiddin Muhammad -

Temuriylar saroyida xizmat qilgan, o‘z davrining nufuzli kishilaridan biri, o‘g‘lining tarbiyasi va ta’limiga jiddiy e’tibor bergan. Onasi (ismi noma’lum) Kobul amirzodalaridan Shayx Abusaid Changning qizi ekani aytiladi. Navoiyning ota-onasi haqida ma’lumotlar kam, u o‘z asarlarida ham qarindoshlari haqida batafsil ma’lumotlar berib o‘tmagan.

Navoiyning Darvesh-ali ismli ukasi bo‘lgani haqida ma’lumotlar bor. XV asrning yetuk adabiyotshunos olimlaridan biri bo‘lgan Davlatshoh Samarqandiy "Tazkirot un-shuaro" ("Shoirlar tazkirasi")da Navoiyning otasi haqida "Navoiyning otasi Abdulqosim Boburning ishonchli kishisi Chig‘atoy ulusi ulug‘laridan edi" deya qisqacha ma’lumot berib o‘tgan. Shu bilan birgalikda u G‘iyosiddin Muhammadning harbiy bo‘lganini ham ta’kidlagan.

Bo‘lajak shoirning she’riyatdagi birinchi ustozlari tog‘asi Mir Sayyid

Qobuliy va Muhammad Ali G'aribiylar bo'lgan. Navoiy ular haqida "Majolis-un nafa'is"da, xususan, Qobuliy haqida: *"Yaxshi tab'i bor erdi, turkchada mayli ko'proq erdi..."* deya, G'aribiy haqida esa: *"Xush muxovara (xushsuhbat) va xushxulq va dardmand yigit erdi. Ko'proq sozlarni yaxshi chalar erdi. Uni va usuli xo'b erdi. Musiqiy ilmidin ham xabardor erdi..."* deya qisqacha to'xtalib o'tgan.

1447 yilda Shohrux Mirzo vafot etadi. Temuriy shahzodalar o'rtasida toj-taxt uchun urush ketib, yurtda taloto'plar boshlanganda Alisher Navoiyning oilasi ham ko'p insonlar qatori yurtni tark etadi.

Yo'lda yosh Alisher buyuk tarixchi Sharafiddin Ali Yazdiyni uchratadi. Tarixchi Alisher bilan tanishadi, uning ilmi va farosatini olqishlaydi, duo qiladi. 1452-yili Shohruxning nabirasi Abulqosim Bobur Hirot taxtiga o'tiradi. G'iyosiddin Muhammad Sabzavor shahriga hokim yetib saylanadi, biroq oradan ko'p o'tmay vafot etadi. Bu vaqtda esa Alisher endigina 12 yoshga qadam qo'yadi. Abulqosim Bobur Alisher va uning maktabdosh do'sti Husayn Boyqaroni o'z qaramog'iga oladi. 1457-1463 yillarda Navoiy Mashhad madrasalarida ta'lim oladi.

1463 yilda esa Hirotga qaytadi. Xuroson poytaxtida Sulton Abu Said o'z tartibini o'rnatgan, muhim vazifalarga u bilan Movarounnahrda kelgan kishilar tayinlangan, Alisher Navoiy ga yaqin kishilar quvg'in qilingan, Husayn Boyqaro bilan birga ketgan tog'alari Mirsaid va Muhammad Ali urushda halok bo'lgan, yashash uchun biron joy topish muammo edi. Alisher Navoiyning o'sha kunlardagi ahvoli uning keyinchalik ustozisi Sayyid Hasan Ardasheriga Samarqanddan yozgan maktubidagi she'riy satrlarda nihoyatda ta'sirli va haqqoniy ifodalab berilgan.

Bu vaqtda mamlakatda taniqli shoir bo'lib qolgan Alisher Navoiyni Abu Said ta'qib qilib, Hirot dan chiqarib yuboradi. Shoir Samarqandga ketishga majbur bo'ladi. Alisher Navoiy Samarqandda 1465-yildan 1469-yilning bahorigacha yashadi, Fazlulloh Abu Lays madrasasida o'qib, turli fanlarga oid bilimlarini yanada chuqurlashtirdi.

1500 yillarda shoirning hayot sharoiti qiyinlashadi. Salomatligi yomonlashadi, biroq u ijoddan to'xtamaydi. 1501-yil 3-yanvarda Navoiy kasallikdan vafot etadi. Butun Hirot xalqi buyuk shoiri uchun 7 kun davomida motam tutadi.

SHOIR IJODIYOTI

Alisher Navoiy ikki tilda mukammal ijod qilgan. Turkiy tilda "Navoiy", forsiy tilda esa "Foniy" taxalluslarini qo'llagan.

Alisher Navoiyning adabiy va ilmiy merosini 4 faslga bo'lish mumkin:
1. Devonlari. 2. Dostonlari. 3. Forsiy tildagi she'riy merosi. 4. Ilmiy-

filologik, nasriy va tarixiy asarlari.

Alisher Navoiyning o‘zbek tilida yaratgan she’riy merosi asosan "Xazoyin ul-maoniy" devoniga jamlangan. Asar 4 qismdan iborat.

Devonning birinchi qismiga "G‘aroyib us-sig‘ar" ("Bolalik g‘aroyibotlari"), ikkinchi qismiga "Navodir ush-shabob" ("Yigitlik nodirotlari"), uchinchi qismiga "Badoye’ ul-vasat" ("O‘rta yosh badialari") va nihoyat, to‘rtinchi qismiga "Favoyid ul-kibar" ("Keksalik foydalari") degan nomlar berildi. "Xazoyin ul-maoniy" inson bolasining murakkab va yuksak tafakkuri hamda behisob his-tuyg‘ulari bilan bog‘liq minglarcha she’r va o‘nlarcha she’r turlarini o‘z ichiga olgan majmua bo‘lib, Sharq adabiyoti tarixida noyob hodisadir. Bu xil majmua Alisher Navoiyga qadar Amir Xisrav Dehlaviy tomonidagina tuzilgan. Ushbu devonga kirgan minglarcha she’rlarni Alisher Navoiy butun umri davomida turli sharoitlarda, har xil sabablar bilan yozgan bo‘lib, ular shoir hayoti va u yashagan davr bilan sonsiz-sanoqsiz iplar orqali bog‘langan. Alisher Navoiy "Xazoyin ul-maoniy" ga qadar "Ilk devon", "Badoye’ ul-bidoya", "Navodir un-nihoya" devonlarini tuzgan. "Xazoyin ul-maoniy" ana shu 3 devonga kirgan hamda "Navodir ul-nihoya" tuzilgandan keyin yozilgan she’rlar asosida yuzaga kelgan.

"Xazoyin ul-maoniy"dagi 4 devonning har birida 650 tadan 2600 g‘azal, umuman 4 devonda 210 qit‘a, 133 ruboiy, 86 fard, 52 muammo, 13 tuyuq, 10 muxammas, 10 chiston, 5 musaddas, 4 tarje‘band, 4 mustazod, 1 musamman, 1 tarkibband, 1 qasida, 1 masnaviy, 1 soqiynoma mavjud bo‘lib, Sharq she’riyatining 16 turi namoyondir.

1472-1476-yillarda birinchi devoni "Badoye’ ul-bidoya" ("Badiylik ibtidosi") devonini shoh amri va istagi bilan o‘zi kitob qiladi. Mazkur devon 777 g‘azal, 85 ruboiy, 52 muammo, 46 qit‘a, 53 fard, 10 tuyuq, 10 lug‘z, 3 mustazod, 5 muxammas, 3 tarje‘band, 2 musaddasdan tarkib topgan.

Alisher Navoiy butun ijodi davomida turli janr va yo‘nalishlarda salmoqli ijod qilgan. Nasrda ham, nazmda ham yetuk asarlar yaratgan. Nasrda Navoiy asosan ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-ta’limiy va ilmiy-falsafiy, iqtisodiy yo‘nalishlarda qalam tebratgan.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. **Абдуллаев, Ш.З.** Навоийга армуғон: Тўплам / Ш. Абдуллаев. – Тошкент: Ўзбекистон, 1982. – 206 б.

Акрам, Ботирхон. Фасоҳат мулкининг соҳибқирони: мақолалар / Ботирхон Акрам. – Тошкент: Ўзбекистон, 1991. – 244 б.

2. **Навоий, Алишер.** Хамса / А. Навоий. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2021. – 428 б. 4.
3. **Навоий, Алишер.** Лайли ва Мажнун : Достон / А. Навоий. – Тошкент: Фафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1990. – 128 б.
4. **Навоий, Алишер.** Ғазал гулзоридан 100 оташин гул: Ғазаллар / А. Навоий. – Тошкент. – 2013. – 204 б.
5. **Навоий, Алишер.** Чор девон: ғазаллар / тузувчи Ш.Шомухамедов. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1977. – 110 б.
6. **Навоий, Алишер.** Лисонут тайр : достон / Сўз боши муаллифи В. Раҳмонов. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1991. – 464 б
7. **Навоий, Алишер.** Фарход ва Ширин : Достон / А. Навоий. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1983. – 591 б.
8. **Навоий, Алишер.** Маҳбуб ул-кулуб / А. Навоий. – Тошкент: Ёшлар матбуоти нашриёти, 2022. – 320 б.
9. **Навоий, Алишер.** Ҳикматлар / А. Навоий. – Тошкент: Шарк, 2014. – 224 б.
10. **Навоий, Алишер.** Садди Искандарий / А. Навоий. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2021. – 452 б.
11. **Навоийдан савод очдим / тўпловчи ва таржимон Я. Қўчқоров.** – Тошкент: O`zbekiston, 2016. – 176 б.

12. **Azizov, Saidbaxrom.** Alisher Navoiy asarlarida falakiyot sirlar i/ S. Azizov; mas'ul muxarrir O. Bo'riev. – Toshkent: O`zbekiston NMIU, 2018. – 136 b.
13. **Ali, M.** Navoiy va Boykaro : tarixiy drammlar / M. Ali ; muxarrir D. Ulugmurodov. – Toshkent: CHO'lpn nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018. – 352 b .
14. **Botir, D.** Ishkiy navolar : she'rlar / D. Botir. – Fargona: Fargona nashriyoti, 2016. – 56 b.
15. **Madaev, Omonulla.** Navoiy suxbatlari / O. Madaev; muxarrir S. Xo'jaaxmedov. – Toshkent: O`qituvchi NMIU, 2018. – 248 b.
16. **Mallaev, Natan.** Alisher Navoiy va xalk ijodiyoti / N. Mallaev. – Toshkent: G. G`ulom nomli NMIU, 2015. – 431 b.
17. **Navoiy, Alisher.** Buxoriylar haqida / to'plab nashrga tayyorlovchi O. Safarova, mas'ul muxarrir S. Rufiddinov. – Toshkent: Akademnashr, 2018. – 80 b.

18. Navoiy, Alisher : komusiy lug‘at. 1-jild: A - S/ taxrir xay‘ati A. Kayumov, ijodiy gurux S. Ganieva, mas‘ul muxarrir SH. Sirojiddinov, takrizchi D. Saloxiy. - Toshkent: Sharq NMAK Bosh taxririya, 2016. – 536 b.

19. Navoiy, Alisher: komusiy lug‘at. 2-jild: T – X / taxrir xay‘ati A. Kayumov, ijodiy gurux S. Ganieva, mas‘ul muxarrir SH. Sirojiddinov, takrizchi R. Zoxidov. – Toshkent: Sharq NMAK Bosh taxririya, 2016. – 480 b.

20. Navoiy, Alisher. Lison ut-tayr/ A. Navoiy; so‘zboshi, tabdil va izoxlar muallifi M. Abdulxayr, A. Paradaev. –Toshkent: YAngi asr avlodi, 2019. – 544 b.

21. Navoiy, Alisher. Maxbub ul-kulub: xozirgi o‘zbek tiliga tabdil / A. Navoiy ; mas‘ul muxarrir SH. Sirojiddinov; O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti. – Toshkent: Sano-standart, 2018. – 192 b.

22. Navoiy g‘azaliyoti talkinlari / to‘plovchi N. Jumaxo‘ja. – Toshkent: O‘zbekiston NMIU, 2018. – 384 b.

23. Navoiy, Alisher. Muhokamatu-l-lug‘atayn / Q.Sodiqov tahlili, tabdili va talqini ostida. – Toshkent: Akademnashr, 2017. – 128 b.

24. Navoiy, Alisher. Xamsa Nasriy bayon / Alisher Navoiy; Nashrga tayyorlovchi O‘.Yo‘ldoshev. – Toshkent: Navro‘z nashriyoti, 2019. – 712 b.

25. Navoiy, Alisher Navoiy. – Toshent: Yangi asr avlodi, 2019. – 336 b.

26. Navoiydan savod ochdim... / to‘plovchi va tarjimon YA. Ko‘chkorov. – Toshkent: O‘zbekiston, 2016. – 176 b.

27. Oybek. Navoiy : roman / Oybek ; mas‘ul muxarrir N. Karimov. - Toshkent: O‘zbekiston, 2016. – 456 b.

28. Rustamov, A. Alisher Navoiy gazallarida xazil-mutoyiba / tuzuvchi A. A‘zamov, maxsus muxarrir A. Rustamov. - 2-to‘ldirilgan nashri. – Toshkent: G. Gulom nomli NMIU, 2015. – 158 b.

29. Suyun, A. Navoiydan topdim : she‘rlar, xikoyalar / A. Suyun. – Toshkent: O‘zbekiston, 2015. – 168 b.

30. Xayitmetov, A. Navoiy lirikasi / A. Xayitmetov; nashrga tayyorlovchi; N. Jumaxo‘ja, mas‘ul muxarrir A. P. Kayumov. - to‘ldirilgan va tuzatilgan 2-nashri. – Toshkent: O‘zbekiston, 2015. – 328 b.

Davriy nashrlarda chop etilgan maqolalar

- 31. Erkinov, A.** “Gar Navoiyding ado soʻzini oʻtkarsa”: [A, Navoiy tavalludining 582 yilligi] / A. Erkinov // Xalq soʻzi. – 2023. – 3 fev. – №23. – 4b.
- 32. Eshboyev, T.** Ey soʻz, be balo ajabgursen...” : [A, Navoiy tavalludining 582 yilligi] / T. Eshboyev // Xalq soʻzi. – 2023. – 7 fev. – № 25. – 4 b.
- 33. Habibova, M.** Qalbga mahbub hikmatlar: [Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asari toʻgʻrisida] / M. Habibova // Maʼrifat. – 2024. – 17 yan. – 11b.
- 34. Isomiddinov, Z.** Navoiyga bagʻishlangan oltin kitob: [A, Navoiy tavalludining 582 yilligi] / Z. Isomiddinov // Yangi Oʻzbekiston . – 2023. – 9 fev. – № 27. – 4 b.
- 35. Joʻrayeva, D.** Kimki Navoiyni oʻqisa...” : [A, Navoiy tavalludining 582 yilligi] / D. Joʻrayeva // Buxoronoma . – 2023. – 4 fev. – № 9. – 4 b.
- 36. Jumaxoʻja, N.** Navoiy siymosining yangi badiiy talqini // Maʼrifat. – 2022. – 21-dek. – B.11
- 37. Karim, B.** Alisherbek hovuzidan suv ichgan olim [Alisher Navoiy haqida] / Bahodir Karim // Jadid. 2025. – 31-yan. – B.7
- 38. Mahmudov, N.** Navoiy merosini teran oʻrganish yoʻlida : [A, Navoiy tavalludining 582 yilligi] / Z. Isomiddinov // Yangi Oʻzbekiston . – 2023. – 4 fev. – № 24. – 6 b.
- 39. Mahmudov, O.** Xalqimiz kutgan asar : [Alisher Navoiy tavalludining 584 yilligiga] / O. Mahmudov // XXI. – 2025. – 6-fev.
- 40. Mirzo, I.** Umidim buldurkim, umidinggʻa etgaysen : [Alisher Navoiy haqida] / Iqbol Mirzo // Jadid. – 2025. – 7-fev.
- 41. Nosirov, I.** “Boʻlmasin xar ne yozarsen illo binafsh” [Alisher Navoiy xazratlarining xar bir asari ulkan ijod namunasi] / I. Nosirov // Xalq soʻzi. – 2024. – 27 yan.
- 42. Olim, S.** Navoiy kancha va nechta janrda asar bitgan?: [A. Navoiy tavalludining 582 yilli] / M. Tojimamatov // Yangi Oʻzbekiston. – 2023. – 1 fev. – № 26. – B.6
- 43. Ofoq, N.** Xalq shoiri yoxud komillik faqat oʻzingga emas odamlarga manfaat etishdir: [A. Navoiy tavalludining 582 yilligi] / N. Ofoq // Yangi Oʻzbekiston . – 2023. – 9 fev. – № 27. – 4 b.
- 44. Pardayeva, M.** Ikki buyuk mutafakkir murabbiy : [Joriy yil 2 - fevral kuni viloyatda oʻtkaziladigan maʼnaviy maʼrifiy oʻquvi Navoiy va Bobur xayoti va ijodiga bagʻishlanadi] / M. Pardayeva // Buxoronoma. – 2024. – 31 yan.

- 45. Pardayeva, M.** Umrboqiy qadriyatlar kuychisi ”: [A, Navoiy tavalludining 582 yilligi] / M.Pardayeva // Buxoronoma . – 2023. – 4 fevr. – № 9. – 4 b.
- 46. Pirnafasova, M.** Xalqaro adabiy bayram : [Alisher Navoiy tavalludining 584 yilligi] / M. Pirnafasova // Jadid. – 2025. – 7-fevr.
- 47. Saloxiy, D.** Ulug` mutafakkir merosi insoniyat mulki : [A, Navoiy tavalludining 582 yilligi] / D.Saloxiy // Xalq so`zi. – 2023. – 7 fev. – № 25. – 4 b.
- 48. Sayyid, S.** Navoiyning Vatan yanglig‘ qiyosi yo‘q / Sirojiddin Sayyid // Ishonch. – 2025. – 8-fev.
- 49. Qorayev, Sh.** Abdurahmon Jomiyning kitobxonlik kechalari va Alisher Navoiy / Sh.Qorayev // Ma’rifat. – 2024. – 7-fev. – B.2
- 50. Rahmonov, V.** Navoiyning o‘lmas zafarnomasi / V. Rahmonov // Jadid. – 2025. – 8-avg.
- 51. Rustamov, Yo.** Ulug‘ hazratni anglamoq uchun... [9-fevral – Mutafakkir Alisher Navoiy tavallud topgan kun] / Yo. Rustamov // Hurriyat. – 2025. – 5-fev. – №5. – B.5-6.
- 52. Rajabov, B.** Imom Buxoriy va Alisher Navoiy / B.Rajabov // Ma’rifat. – 2024. – 11-sent. – B.9
- 53. Sayyid, S.** Erk va ulug`lik timsoli. [A, Navoiy tavalludining 582 yilli] / M.Tojimamatov // Yangi O`zbekiston . – 2023. – 9 fev. – № 27. – 4b.
- 54. Sobirov, A.** Xazrat daxosi hamon tilimizni boyitishda davom etmoqda : [A, Navoiy tavalludining 582 yilligi] /A.Soborov // Yangi O`zbekiston . – 2023. – 9 fev. – № 27. – 4 b.
- 55. Sattorova, G.** Zamon va makonlarni o`z izmiga bo`ysindirgan mutafakkir: [A,Navoiy Tavalludining 582 yilligi] / G.Sattorov // Yangi O`zbekiston . – 2023. – 9 fev. – № 27. – 5 b.
- 56. Saidov, A.** “Mamlakat ustuni, davlat tayanchi” [Navoiy xayoti va faoliyatiga oid yangi asar] / A.Saidov // Xalq so`zi. – 2024. – 23 yan.
- 57. Salohiy, D.** “O`rtanmoq” saodati. [9-fevral – Mutafakkir Alisher Navoiy tavallud topgan kun] / D. Salohiy // Xalq so‘zi. – 2025. – 5-fev. – B.4
- 58. Tojimamatov, M.** Gavhare topdim,ani ko`nglumda pinxon ayladam...: [A, Navoiy Tavalludining 582 yilligi] / M.Tojimamatova // Yangi O`zbekiston . – 2023. – 7 fev. – № 25.
- 60. Tojimamatov, M.** Navoiyda uzoqlashgan avlod bizdan emas. [A, Navoiy tavalludining 582 yilligi] / M.Tojimamatov // Yangi O`zbekiston . – 2023. – 8 fev. – № 26.
- Ulug‘, Sh.** Amsterdamda Navoiyxonlik : [Alisher Navoiy tavalludining 584 yilligi munosabati bilan Niderlandiya qirolligi poytaxtida ham

tantanali tadbirlar bo‘lib o‘tdi] / Sh. Ulug‘ // Jadid. – 2025. – 14-fev.

61. Ulug‘, Sh. Amsterdamda Navoiyxonlik : [Alisher Navoiy tavalludining 584 yilligi munosabati bilan Niderlandiya qirolligi poytaxtida ham tantanali tadbirlar bo‘lib o‘tdi] / Sh. Ulug‘ // Jadid. – 2025. – 14-fev.

62. Xollieva, G. Jaxonga sochilgan nodir durdonalar. [A, Navoiy tavalludining 582 yilligi] / G. Xollieva // Yangi O‘zbekiston . – 2023. – 3 fev. – № 23. – B.6

63. Yusupova, D. Alisher Navoiy “Xamsasining Usmonli turk adabiyotiga ta’siri / D. Yusupova // Jahon adabiyoti. – 2025. – № 7. – B. 3-8.

64. Yunus, M. Mutafakkir ijodiga [9-fevral – Mutafakkir Alisher Navoiy tavalludi kuni] / Mansur Yunus // Yangi O‘zbekiston. – 2025. – 4-fev. – B.6.

65. Алишер Навоий ҳикматлари : [9 февраль – Алишер Навоий таваллуд топган кун] // Халқ сўзи. – 2025. – 4 фев.

66. Абдусаломов, Ғ. Алишер Навоий ва Шарқ Ренессанси : [ҳалқаро анжуман] / Ғ. Абдусаломов // Янги Ўзбекистон. – 2025. – 11 фев.

67. Буюк шоир ва мутафаккир Мир Алишер Навоий ижудий меросини юртимиз ва жаҳон миқёсида кенг тарғиб қилиш ҳамда Навоий вилоятида Алишер Навоий йилини юқори даражада ўтказиш чора-тадбирлари тўғрисида : Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2025 йил 7 февраль қарори // Янги Ўзбекистон. – 2025. – 8 фев.

68. Очиллов, Э. Улуғ шоир ижоди сув ичган чашма : [Алишер Навоий ҳақида] / Э. Очиллов // Халқ сўзи. – 2025. – 31 янв.

69. Очилова, Ҳ. Илоҳий ҳикматлар – теран қарашлар асоси : [9 февраль Алишер Навоий таваллуд топган кун] / Ҳ. Очилова // Халқ сўзи. – 2024. – 3 фев. – Б.4

70. Пекинда Алишер Навоий ижодий меросига бағишланган илмий-амалий анжуман // Халқ сўзи. – 2023. – 16 март. – № 54

71. Сирожиддинов, Ш. Навоийни танитмоқ-элни танитмоқ, демак [Ўзбек халқининг кимлик тушунчасини ифода этгувчи миллий тимсол] / Ш. Сирожиддинов // Янги Ўзбекистон. – 2024. 15 фев. – Б.6

72. Саййид, С. “ Муаллим куллуғига хат берурмен...” [9 февраль – Алишер Навоий таваллуд топган кун] / Сирожиддин Саййид // Халқ сўзи. – 2024. 9 фев. – Б.4

73. Салоҳий, Д. Ўртанмоқ саодати : [9 февраль – Алишер Навоий таваллуд топган кун] / Д. Салоҳий // Халқ сўзи. – 2025. – 5 фев.

74. Саййид, С. Навойга етмоқ бахти : [Алишер Навоий ҳақида] / Сирожиддин Саййид // Халқ сўзи. – 2025. – 6 фев.

75. Эшбоев, Т. Алишер Навоий ва Шарқ Ренессанси / Т. Эшбоев // Халқ сўзи. – 2025. – 11 фев.

Internet resurs:

76. <https://tafakkur.net/alisher-navoiy.haqida>

77. <https://sputniknews.uz/20190208/alisher-navoiy-hayoti-va-ijod-yoli-22240204.html>

MUNDARIJA

KIRISH	2
ALISHER NAVOIY HAYOTI VA IJODI	2-3
SHOIR IJODIYOTI	3-4
ADABIYOTLAR RO‘YXATI	4-10